



2022-yil. 6-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

L LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



«Til va adabiyot ta'limi» «Преподавание языка и литературы» «Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'liqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev
(bosh muharrir o'rinbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz



Elektron jurnali

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Bahodir JOVLIYEV. O'zbekistonda ta'lim islohoti nega birinchi o'ringa qo'yildi?2

TADQIQOT

L.A.SULTONOVA. Maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash.....	7
Latifa XUDAYQULOV. Xatna to'yi udumlarining tarixiy asoslari.....	9
Mahbuba SOBIROVA. Adabiy ta'limda "blum" taksonomiyasidan foydalanish.....	11
Nargiza UMURZAQOVA. O'zbek va Turk allalarining mavzu ko'lami va timsollar tadriji.....	15
Otajon NOROV. Islomiy she'riyatda makon va zamon talqini.....	17
Mehriniso ABUZALOVA, Nodira XAYRULLAYEVA. Iqtisodiy atamalarning shakllanishi va taraqqiyoti.....	19
Xasan GAFFOROV. Ingliz tilshunosligida gender tadqiqotlar.....	22
Rafiqjon ZARIPOV. Davlat tili taraqqiyotida til akademiyalari va atamalar qo'mitalarining roli.....	24
Shuhrat XOTAMOV. Xodimlar kasbiy tayyorgarligini oshirish usullari.....	27
E'zoza SABIROVA. Izohli lug'atlardagi huquqshunoslik terminlari tavsifining takomillashtirilishi.....	29
SALIMA JUMAYEVA. "Yarador umid odari" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	32
Zarina KARAMATOVA. XX asr O'zbek she'riyatida marsiya janri.....	37
Yulduz BAKHRIDDINOVA. Ingliz va O'zbek tillaridagi fitonim komponentli frazeologik birliklarning antonimik va sinonimik xususiyatlari.....	39
Kamol ULUG'MURODOVA. O'zbek g'azalchiligida "Layli" obrazining badiiy talqini.....	41
Abdraxmanova MAKSATXAN. Hozirgi zamon Fransuz tilida modal so'zlarning leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari.....	43
Shakhlo NUNIYAZOVA. Similarities and distinctive features of English, Uzbek and Russian idiomatic expressions.....	46
Dilrabo KAZAKBAYEVA. Muhammadrizo Ogahiy ijodida Alisher Navoiy an'analari.....	48
Abdimurod ARSLONOV. Amir Temur haqidagi qo'lyozma manbalarning tarixiylik xarakteri va tasnifiy tahlili.....	50
Oydin NURULLAYEVA. Til korpuslarini yaratishda tezaurus lug'atlarning o'rni.....	56

TAHLIL

Mirsanjar SANAYEV. Abdulla Oripovning aruz vaznida yozilgan masnaviyatlari tahlili.....	58
Munis JO'RAEVA. So'z bilan bog'liq mifologik qarashlar.....	60
Munira RAMAZONOVA. Tasviriy san'atning pedagogik imkoniyatlari.....	61
Sarvinoz OMONOVA. Yosh dizaynerlarni o'qitishda moda olamidagi yangi tushuncha va atamalarning o'zbek tilidagi talqini ahamiyati.....	63
Umarov SARDORBEK. Futurov g'oyasining mintqa madaniyati rivojidadagi o'rni va badiiy adabiyotga ta'siri.....	65

ЛЕКСИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ

Sarvinoz SADULLAEVA. Особенности лексики языка СМИ.....	67
Гульзода ДЖАКБАРОВА. Особенности стиля научной прозы.....	68

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Виктория ДВОРЯШИНА. Жанровое своеобразие «Путешествия с Чарли в поисках Америки» Джона Стейнбека.....	70
---	----

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Фотима АРИПОВА, Гульчехра ДАВЛЯТОВА. Формирование межкультурной коммуникативной компетенции студентов аудиовизуальными средствами.....	72
--	----

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

*Jon sham'ini yoqmoq yoqadur tesa tong ermas,
Majnun topib ul jon tilagi Laylini Laylo.*
(1018- g'azal 7- bayt)

Bu o'rinda shoir oshiqning jismini shamga qiyoslagan. Ya'ni oshiqning joni sham bo'lib yonsa-da uning yog'dusi tunga oydinlik berolmaydi. Shu bois, Majnun yonayotgan jismni ko'p ovvora bo'lmasligini, chunki tunnning yorishmasligini, bunga Laylining ishq to'sqinlik qilishini aytib roziligini bildirmoqda. Shunday bo'lsa-da, Majnunning birdan bir tilagi – Layli. Negaki u butun qorong'u tun bag'rida Layli jamolini ko'rish

baxtiga muyassar bo'lsa bo'lgani. Majnun uchun bundan oliy baxt yo'q. Guvohi bo'lganingizdek, Hofiz Xorazmiy ushbu bayt orqali ham ilohiy ishqning yashirin sirlarini oshkor etgan.

Xullas, har ikkala shoir ijodida qo'llangan "Layli" timsoli haqida ko'plab mulohazalar bildirish mumkin. Negaki bu obraz shoirlar ijodida rang-barang ma'no-mohiyat kasb etganligi bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, Atoyi ham, Hofiz Xorazmiy ham "Layli" obrazi orqali ajdodlar merosini avlodlar yodida saqlanib qolishiga munosib hissa qo'shganlar.

1. X. Xorazmiy. Devon. "Ўзбекистон марказий кометити" нашри. Тошкент. 1981. 6- бет
2. Атойи. Devon. Тошкент. "Фан" 2008. 13-бет
3. К. Муллахожаева. "Алишер Навоий ғазалётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги". Тошкент. "Академнашр" 2019. 30 б
4. Д. Юсупова. "Навоийшunoslik". Тошкент. "Тамaddун" 2018. 129 б.
5. Уша манба 130 б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Mullaxo'jaeva. "Alisher Navoiy g'azalyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi" - Toshkent. "Akademnashr". 2019.
2. Atoyi. Devon. -Toshkent, "Fan". 2008
3. T. Ahmedov. "Alisher Navoiyning Layli va Majnun dostoni" -Toshkent, "Fan". 1970
4. H. Xorazmiy. Devon. I kitob "O'zbekiston markaziy kometiti" nashri. -Toshkent. 1981
5. H. Xorazmiy. Devon. II kitob "O'zbekiston markaziy kometiti" nashri. -Toshkent. 1981
6. D. Yusupova. "Navoiyshunoslik". -Toshkent. "Tamaddun" 2018
7. T. R. Xo'jaev. "XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor" dissertatsiya. Toshkent. 1996.
8. N. Mallayev. "O'zbek adabiyoti tarixi". -Toshkent. 1976
9. "Hayot vasfi" O'zbek adabiyoti bo'stoni. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988

Abdraxmanova Maksatxan

A. Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

HOZIRGI ZAMON FRANSUZ TILIDA MODAL SO`ZLARNING LESIK-SEMANTIK, MORFOLOGIK VA CINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Modallik kategoriyasi mulohazaning umumiy mazmunini xarakterlovchi muhim belgilardan biri hisoblanadi, va so'zlovchining ushbu mazmunga munosabatini bildiradi, ya'ni uning voqelikka munosabatini, uni tushunishini ifodalaydi. Modal so'zlar (lot. modalis-o'ichov, usul) so'zlovchining o'z fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrining aniqligi, rostligi, gumonli yoki shartililigini ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlar.*

Kalit so'zlar: nutq, intonatsiya, inkor, so'roq, tasdiq, gumon, shartlilik.

Annotation: *The category of modality is one of the important features that characterize the general content of a thought, and expresses the speaker's attitude to that content, that is, his attitude to reality, his understanding of it. Modal words (lot. modalis-measurement, method) are words that signify a different attitude of the speaker to his opinion and serve to express the accuracy, truthfulness, suspicion or conditionality of his opinion.*

Keywords: speech, intonation, denial, interrogation, affirmation, suspicion, conditionality.

Modallik kategoriyasi so'zlovchining nutqi mazmuniga munosabatining vositasi hisoblanib, ya'ni uning voqelikka munosabatini aks ettirib, bu bilan so'zlovchilarning bir-birini ancha to'liq, bir-birini ko'proq

tushunishiga ko'maklashadi. Shu munasabat bilan akad. V.V. Vinogradovning modallik kategoriyasining shakllari va mazmuni haqidagi fikrini keltirish kerak: "Chunki gap, voqelikni uning amaliy ijtimoiy ongida aks

ettirar ekan, albatta, nutqning voqelikka tegishlilikini ifodalaydi, gap bilan, uning tiplarining rang-barangligi bilan modallik kategoriyasi chambarchas bog'langan. Har bir gap, muhim konstruktiv belgi sifatida, o'z ichiga modallik ma'nosini, ya'ni voqelikka munosabatni ko'rsatishni oladi. Fikrning, tuyg'uning, istakning bir butun har qanday ifodasi, voqelikni mulohazaning u yoki boshqa shaklida aks ettirib, tilning ushbu tizimida mavjud bo'lgan gapning intonatsion sxemalaridan biriga burkanadi va o'sha sintaktik ma'nolardan birini ifodalaydiki, ular jamuljam bo'lib modallik kategoriyasini hosil qiladilar.¹

Mana shuning uchun ham u yoki boshqa tilning modallik kategoriyasini o'rganish bu tilda so'zlashuvchilarga ancha mukammal o'zaro bir-birini tushunishga erishishga ko'maklashadigan ushbu tilning shakllarini va o'sha vositalarini tushunish imkonini beradi.

Fransuz tilida, rus tilida (umuman hind-yevropa tillari tizimida ham) bo'lgani kabi, modallikning ikkita turini farqlash lozim: 1) fe'ning shakllarida, yana shuningdek ayrim yordamchi fe'llar bilan ifodalangan modallik va 2) alohida so'zlar hamda iboralar, intonatsiya, so'zlarning tartibi bilan ifodalangan modallik.

Mana misol uchun, fe'ning indikativ shakli bilan ifodalangan, tasdiqni namoyon qiluvchi il chante gapi, ko'rsatilgan ikkinchi guruhning modallikni ifodalovchi turli-tuman modal so'zlarning qo'shilishi sharofati bilan o'z ma'nosida rang-barang nozik farqlarni qo'lga kiritishi mumkin. Ushbu gap modalligining umumiy xarakterini o'zgartirmasdan, unga tegishli so'z va iboralarni kiritish bilan ko'rsatilgan ish-harakatning sifatini o'zgartirishi mumkin: il chante bien (mal, médiocrement va b.). Biroq bu sifatlar so'zlovchining o'zi bildirgan fikriga bevosita munosabatini ancha aniq ko'rsatish bilan ifodalanishlari ham mumkin: en effet, il chante bien (mal, médiocrement).

So'zlovchining mulohazaga munosabatlarning bu boshqachaligi faqat ijobiy emas, balki salbiy ham berilishlari mumkin: en effet, il ne chante pas bien. Tasdiq ham, inkor ham so'roq shaklda berilishlari mumkin: "en effet, il ne chante pas bien", - "en effet, ne chante-t-il pas bien?". (Oxirgi, so'roq-inkor shaklda, ma'lumki, har doim shubha, ya'ni inkorni inkor mavjud). Shunday qilib, ushbu gapning keltirilgan har bir (tasdiq, inkor, so'roq, so'roq-inkor) konstruksiyasi mulohazaga boshqacha tus beradi; butun gapning en effet yordamida ifodalangan modallik ma'nosi o'zgarmaydi.

Rus tilida ma'lum modal nozik farqlarni so'z tartibining o'zi bilan kiritish mumkin bo'lar edi, masalan, qiyoslang: "Nexoroshu on poet" va "On poet nexoroshu"; oxirgi holda ravishning joyini o'zgartirish va bu bilan bog'liq bo'lgan intonatsiya ifodalanayotgan ish-harakatga ko'proq inkor bag'ishlaydi. Fransuz tilida esa, qat'iy belgilangan so'z tartibi tufayli, ko'rsatilgan nutq (til) vositalari yordamida modallik nozik farqini kiritish cheklangan.

Fransuz tilidagi bu cheklash fransuz tilida "mise en relief" deb ataluvchi nutqdagi ifodalilikning vositalarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarda ham qayd qilinadi.

Hozirgi fransuz tilida modal so'z va iboralarning qo'llanilishini va rivojlanishini ularning barcha aloqalarida va bivositaliklarida kuzatish taklif qilinayotgan tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Chet ellik olimlar tomonidan fransuz tilining ayrim so'zlari va iboralarning modalligini o'rganish mulohazaning nutq birligi sifatidagi gapning emotsional jihatini o'rganish bilan parallel bordi.

Gapdagi ayrim so'zlarning ma'nosiga birinchi bor XVII asrning oxiri XVIII asrning boshi fransuz mutafakkirlari e'tibor berganligi fakti haddan tashqari xarakterli hisoblanadi. Misol uchun, allaqachon A. Arno (Antoine Arnault), mashhur karteziyanchi va "Umumiy grammatika"ning muallifi, o'zining "Umumiy grammatika"dan ikki yil keyin chiqqan "L'art de penser" (1662 y.) asarida so'z tomonidan gapda egallanadigan o'sha qo'shimcha ma'nolar haqida fikr yuritadi.

Amoning ko'rsatib o'tishicha, lug'atlar so'zlar nutqda egallaydigan barcha o'sha ma'nolarni ifodalay olmaydilar, so'zlarning ba'zi bir ma'nolari uning umumiy ma'nosi bilan bog'liq bo'lmasliklari mumkin. Balki unga so'zlovchilar tomonidan bag'ishlanishi mumkin; odatda, uning fikriga ko'ra, bu ma'nolar intonatsiya, mimika, imo-ishoralar va nutqning shu kabi boshqa vositalari bilan ifodalanishi mumkin, ularning sharofati bilan so'zlar so'zlovchining fikrlarini va tuyg'ularini aks ettiruvchi ma'noning eng rang-barang nozik farqlarini oladilar. Ayniqsa so'zlarning mazmuni uchun, Armoning fikricha, nutq intonatsiyasi katta ahamiyat kasb etadi: "... le ton signifiant souvent autant que les paroles mêmes ..."²

O'sha vaqt olimlarining insonning to'g'ridan-to'g'ri tuyg'ularini ifodalagan jonli tilga bu e'tibori ushbu davrning tilida progressiv yo'nalishni namoyon qildi, chunki adabiy tilga jonli xalq tilining so'zlarining va shakllarining suqilib kirishini aks ettirdi. Biroq XVII- XVIII asrlarda adabiy tilning jonli xalq tili bilan hayotbaxsh boyishi, albatta, reaksiyon doiralari tomonidan tilning "buzilishi" sifatida, uning "susayishi" sifatida qabul qilindi.

Ushbu doiralarning yangi so'zlarga va shakllarga bunday munosabatining o'rnakli misoli bo'lib, o'sha davrning saroy ahllariga tegishli bo'lgan shaxslarning suhbat shaklida ifodalovchi, bu doiralarning jonli xalq tilidan paydo bo'lgan til yangiliklariga umumiy munosabatini, suhbatdosh tomonidan keltirilgan misollar ko'rsatib turibdiki, XVII asrning oxiridagi asarlardan biri xizmat qiladi:

"... je voudrais bien demander encore à quoi servent ces superfluités de langage que j'ai tantôt entendues; n'était-ce pas assez celles qui s'étoient déjà introduites dans nos meilleurs Auteurs, ces car enfin, ces en effet, ces sans mentir, ces en mon particulier qui y sont si fréquens et si inutiles, et tant d'autres verbiages de

cette nature qui ne veulent rien dire et qui bien loin d'omer un discours, ne servent qu'à l'affoiblir?

Pourquoi donc les augmenter par d'autres encore plus mal inventez, comme de dire il est vrai que j'ai été en tel lieu, il est vrai que il y avait bonne compagnie, il est vrai que nous nous y sommes bien divertis... « (Malta orolida 20 yil o'tkazgan va yaqindagina Parijga qaytgan komandirning nutqi).³

XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlaridagi fransuz olimlari tomonidan jonli til ustidagi kuzatishlardan payqab qolingan butun gapni tashkil qiluvchi ayrim so'zlarini tushunish uchun ma'no joriy yuz yillikka qadar o'zining na fransuz tili bo'yicha maxsus ishlarda, na bu tilning tarixi bo'yicha umumiy ishlarda o'z rivojini topmadi. Misol uchun, K.Nyuropning fransuz tilining tarixi haqidagi monumental ishda, fransuz tili uchun modal ma'nolarning sohiblari sifatida o'ziga xos bo'lgan alohida so'zlar, shu holicha mutlaqo qayd qilinmaydi. K. Nyurop tilda mavjud faktlarni, ularning ma'nolarini ko'rib chiqmay, oddiy ta'kidlash bilan cheklanib qoladi. Misol uchun, modal ma'noli ravishdoshlar to'g'risida u ta'kidlaydi: "Le gérondif s'emploie parfois d'une manière adverbiale sans se rapporter à aucun mot précis de la phrase précédente ou suivante".⁴

1. Vous ne savez sûrement pas toutes les misères par lesquelles j'ai dû passer pour en arriver où je suis. (Morg. Mauv. Gr. , p. 59).

2. Le conducteur de la petite voiture est le lieutenant Un Tel, un jeune homme; sûrement élégant, avec une voix de salon ... (Tr., Le premier accroc, p. 403).

Birinchi holda sûrement kesimga, ikkinchi holda – aniqlovchiga, oxirgisida mulohazaga uning xulosasi sifatida tegishlidir.

Shunday ravish, masalan, "heureusement" kabi, modal so'z sifatida, u gapning boshida turibdi-mi, o'rtasida-mi yoki oxirida-mi, qat'iy nazar, faqat butun gapga tegishlidir.

1. Heureusement, avec le temps qui passait, la vigilance policière s'atténuait. (Bonte, Le chemin, p. 54).

2. Personne heureusement ne lui avait reproché d'être en chômage... (Morg., Mauv. Gr., p. 94).

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, ayrim modal so'zlar umuman butun gapga, boshqalari esa butun gapga, ham uning alohida bo'laklariga tegishli bo'lishlari mumkin. Modal so'zlarning vazifasidagi bunday farq ularning leksik ma'nolari bilan, yana shuningdek gapning umumiy mazmuni bilan bog'liqdir. Bu qoida burjua tadqiqotchilarida tegishli rivojlanishni topmaydi.

Fransuz tili tadqiqotchilarining ishlaridagi ravishlarni ularning grammatik vazifalari bo'yicha mavjud chegaralashni biz nemis va ingliz tillari tadqiqotchilarining ishlarida ham uchratamiz, u yerda butun gapga tegishli bo'lgan ravishlar uchun maxsus atamalar ishlab chiqilgan (nemis tilida "Satzadverbien" va ingliz tilida "Sentence-modifying adverbs"); fransuz tilining tadqiqotlarida hammaga ma'qul bo'lgan atama hali ishlab chiqilmagan, chunki ravishlarni chegaralashning o'zi hamda ular o'rtasida umuman butun gapga tegishli guruhlarining ajratilishi faqat ayrim tadqiqotchilar tomonidan olib boriladi. Buning natijasida umuman butun gapga tegishli ravishlarni bildirish uchun hammaga ma'qul bo'lgan atama yo'q. Bu ravishlar yoki "adverbes de proposition", yoki "adverbes de phrase" deb ataladilar.⁵

1. В. В. Виноградов. О категории модальности и модальных словах в русском языке, Труды Института русского языка, изд. Академии Наук СССР, М.-Л., 1950, стр. 41.

2. A. Français. Précurseurs français de la grammaire "affective", Mélanges de linguistique offerts à Charles Bally, Genève, 1939, p. 370 : "... интонация кўпинча сўз қанча нарса ифодаласа, шунча нарса ифодалайди..."

3. Kr. Nyrop. Grammaire historique de la langue française, Copenhague, 1930, t.VI, § 244, 3: "Герундий олдинги ёки кейинги гапнинг ҳеч қандай маълум сўзига тегишли бўлмай, баъзан равиш сифатида қўлланилади".

4. H. Nilsson-Ehle. Les adverbes en -ment, compléments d'un verbe en français moderne, Copenhague, 1941, p. 14.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.В. «О категории модальности и модальных словах в русском языке» // Труды Ин-та русск.яз., т.2. М.-Л., 1950.

2. Виноградов В.В. «О категории модальности и модальных словах в русском языке» // Избранные труды. Исследования по русской грамматике. - М.: Наука. 1975. - С. 54 - 87.

3. Турниёзов Н.қ. «Нутқ ва унинг эгоцентрик характери хусусида баъзи мулоҳазалар» Тил ва нутқ систем-сатҳ талқинида. Самарқанд ДЧТИ, 2005. - Б. 21-22.

4. Ёқубов Ж.А. «Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари». - Т.: Фан, 2005. -Б. 224

5. Якубов Ж.А. Модальность условных предложений и их синонимические варианты в современном французском языке. МГУ им. М.В. Ломоносова. Объем 3.1. - Москва. 2002. – С. 48.